



**KASBIY TA'LIM MUASSASASI PEDAGOG KADRLARINING  
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIGA OID  
KOMPETENSIYALARI**

*Xolmatova Maftuna Odiljonovna*

*Marxamat 2-son politexnikumi informatika fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasbiy ta'lismuassasasi pedagog kadrlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, fan o'qituvchilari, axborotlashtirish, kompyuterda ishlash, operatsion tizimlar, dasturiy ta'minot.

**Аннотация:** В статье представлена информация о компетенциях педагогических работников профессионального учебного заведения в области информационно-коммуникационных технологий.

**Ключевые слова:** информационно-коммуникационные технологии, учителя естественных наук, информатизация, работа на компьютере, операционные системы, программное обеспечение.

**Abstract:** This article provides information on the competencies of pedagogical staff of a vocational education institution in information and communication technologies.

**Keywords:** information and communication technologies, science teachers, informatization, computer work, operating systems, software.

**KIRISH**

Jamiyat insonlarning jamoa bo'lib yashashga tabiiy ehiyojlari asosida paydo bo'lgan bo'lsa, zamonaviy jamiyat rivojlanishining o'ziga xosligi uning global



xarakterga ega bo‘lgan axborotlashtirish, jumladan, ta’limni axborotlashtirish jarayoni bilan bog‘liqligida ko‘rinadi.

## MUHOKAMA

JManbalarda ta’limni axborotlashtirishning bosh maqsadi axborotlashgan jamiyat sharoitida ta’lim tizimi qatnashchilarini (pedagog kadrlar, ta’lim oluvchilar, texnik-muhandis xodimlar, ma’muriy-boshqaruv xodimlari va boshqalar) hayot faoliyatlaridagi maishiy, ijtimoiy va kasbiy sohalariga to‘liq va samarali ishtirok etishlariga tayyorlashdan iborat bo‘lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi ta’lim rivojlanishi muammolarining kompleks hal etilishi kadrlar tarkibini yuqori malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish, xodimlarning kasb darajasini oshirishni ta’minlashi ta’kidlanadi.

Bundan AKTni ta’lim jarayoniga samarali joriy etish uchun uni jarayon subyektlari, jumladan, o‘qituvchilar ehtiyojlariga yo‘naltirish zarur, degan kichik xulosaga kelish mumkin.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotimizdagi samaradorlik va natijaviylik bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan omillarga tayanib, kasbiy ta’lim muassasasi pedagog kadrlariga qo‘yiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid kompetensiyaviy talablar tarkibi mavjudligini ko‘rsatdi.

Kasbiy talim muassasasi fan o‘qituvchilarining AKTga oid kompetensiyasi – bu o‘qituvchilar faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirishda axborot texnologiyalarini integratsiyalash uchun zarur bo‘ladigan layoqat tarkibidan iborat. Uning funksiyasi AKT siyosati, kompyuterda ishslashning tayanch usullari, pedagogik faoliyatda ta’lim resurslaridan foydalanish, virtual tarzda samarali pedagogik hamkorlik qilish layoqatiga oid talablar qo‘yiladi.

Ushbu kompetensiyani 4 ta yo‘nalishga ajratish maqsadga muvofiq, ya’ni ular:

- A) AKT siyosatini tushunish;
- B) Kompyuterda ishslashning tayanch usullarini bilish;



V) Pedagogik faoliyatda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish;

G) Virtual pedagogik hamkorlik qilish layoqati.

A) AKT siyosatini tushunishga oid layoqat tarkibi ta’limda AKTdan foydalanish tamoyillarini tavsiflash va tahlil qilish (axborotlashtirish, ta’limni axborotlashtirish, AKTning samarasi, AKTga oid Davlat siyosati, umumiy talablarga oid) hamda kompyuter va uning qurilmalaridan foydalanish qoidalarini tavsiflash (texnik, xavfsizlik, ergonomik va boshqa talablarga oid) iborat bo‘ladi.

B) Kompyuterda ishslashning tayanch usullarini bilishga oid layoqat tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- AKTning keng tarqalgan texnik va dasturiy vositalarini tavsiflash va ko‘rsatish (kompyuter va uning qurilmalari, ishga tushirish va ishni yakunlash, operatsion tizimlar, dasturiy ta’milot kabilarga oid);

- keng tarqalgan elektron ta’lim resurslarini tavsiflash va ko‘rsatish (elektron darsliklar, trenajerlar, multimedia resurslariga oid);

- matn va jadvalli, namoyish muharrirlarining imkoniyatlarini tavsiflash va ko‘rsatish (matn va jadvalli muharrirlari, yaratish, tahrirlash, formatlash, saqlash, chop etish va boshqa tayanch funksiyalariga oid);

- internet va unda ishslashni tavsiflash va ko‘rsatish (Internet, brauzer, sahifa, sayt, portal, havola va boshqalarga oid), qidirish tizimlarini tavsiflash va ko‘rsatish (qidirish tizimlari, funksiyalari, eng ko‘p tarqalgan qidirish tizimlariga oid);

- elektron pochtani tavsiflash va ko‘rsatish (elektron pochta xizmati, elektron pochta ochish, ma’lumot almashish va boshqalarga oid);

- turli ma’lumotlar ombori va ularning vazifalarini tavsiflay olish (ma’umotlar ombori, vazifasi, keng tarqalganlariga oid);

- tarmoq orqali muloqot vositalarni tavsiflash (keng tarqalgan matn xabar, video konferensiya, ijtimoiy tarmoq, tarmoq muhitlari, ularning afzallikkleri va kamchiliklariga oid).

V) Pedagogik faoliyatda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish layoqati:



- o‘z faoliyatiga oid elektron ta’lim resurslari, tayyor dasturiy mahsulotlardan foydalanishning ahamiyatini tavsiflash va ko‘rsatish (mazmuni, tizimlashtirish, zarurligini baholash, maqsadli foydalanish, ahamiyati, tajriba, samara, natijalarga oid);
- qidirish tizimlari, internet saytlari, elektron pochta, tarmoq ma’lumotlar ombori yordamida hamkorlar va resurslarni izlash, foydalanish (qidirish tizimlari, internet saytlari, elektron pochta, tarmoq ma’lumotlar omboridan foydalanish maqsadlari, tajriba, samara, natijalarga oid);
- turli elektron o‘qitish dasturlari va trenajerlarning o‘quvchilarga bilim berishdagi ahamiyatini tushuntirish (maqsadlar, ahamiyati, tajriba, samara, natijalarga oid);
- o‘qituvchi faoliyati unumdorligini yaxshilash, kasbiy bilimlarini oshirib borishda AKT vositalaridan foydalanishni bilish (multimediali darslarni tashkil etish, materiallarini tayyorlash, matn va jadvalli muharrirlardan foydalanish, predmetiga oid bilimlar va o‘qitish usullarining elektron manbai, integratsiyalash, tajriba, samara, natijalarga oid).

G) Virtual pedagogik hamkorlik qilish boshqalar bilan pedagogik muammoni yechish va ta’lim maqsadiga erishish bo‘yicha virtual hamkorlik qilish (keng tarqalgan matn xabar, ijtimoiy tarmoqlarda ishlash, maqsadlar, tajriba, samara, natijalarga oid) hamda veb-resurslar, virtual muloqotlardagi axborotlarning ishonchliligi va foydalilagini tavsiflash, ularni ajrata olish (veb-resurslar va veb-muloqotlarning ishonchliligi, ishonchsiz va zararli axborotlarni saralash kabilarga oid) dan iboratdir.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Закирова Ф. М. Подготовка будущих учителей к профессиональной деятельности в среде ИКТ // Информатика и образование. - 2017. -Н 10. - С. 101- 103.



2. Sulaymanova D.B. —Experience in the application of mediatechnologies in teaching informatics in 5thgrade of schools//Middle European Scientific Bulletin, ISSN 2694-997080, volume 12 May 2021, 80-83 b.
3. Абдукадыров А., Тайлаков Н., Болтаев Б. и др. Основы информатики и вычислительной техники. 9 класс. Учебник. — Ташкент: Издательско-полиграфический творческий дом имени Чулпана, 2016.
4. Йулдашева Г., Йўлдошева М. Использования информационных технологий в организациях //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 477-480.
5. Йўлдашева М., Тешабаева О., Йўлдашева Г. Эффективное управление инвестиционной деятельностью информационно-коммуникационных технологий Узбекистана //Студенческий вестник. – 2021. – №. 3-4. – С. 11-13.
6. Yuldasheva G. I. Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron darsliklardan foydalanish //youth, science, education: topical issues, achievements and innovations. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 36-39.
7. Yuldasheva G., SHermatova H. Aniq fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 372-376.